

DUNYONING YANGI SIYOSIY TARTIBOTI KONTURLARI

Xudoyberganova Dilnoza Komiljon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Siyosatshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi

dilnozakhudayberganova0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18033116>

Annotatsiya: O‘tgan asrning oxirlarida shakllangan bir qutbli dunyo tartiboti asta-sekinlik bilan ko‘p markazli kuchlar muvozanatiga aylanmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar davlat qudrati, institutlarning parchalanishi hamda texnologik va iqtisodiy bo‘linish belgilariga ega. Jahon siyosatida yangi qudratli markazlar Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi mamlakatlar shakllanib, ular yangi tartibotning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Mazkur maqolaning maqsadi yangi jahon tartibining konturlarini uning tarkibiy tendensiyalari, asosiy ishtirokchilari va tizimli o‘zgarishlari asosida tahlil qilishdan iborat. Xulosa shundan iboratki, dunyo hozirda o‘tish bosqichida ya’ni eski tartibning yemirilishi va hali aniq shaklga ega bo‘lmagan yangi tartibning shakllanishidir.

Kalit so‘zlar: yangi dunyo tartiboti, xalqaro munosabatlar, ko‘p qutblilik, xalqaro tashkilotlar, AQSH, Xitoy, BRICS.

Abstract: The unipolar world order that emerged at the end of the last century is gradually transforming into a balance of multiple centers of power. Contemporary international relations are characterized by state power, the disintegration of institutions, and technological and economic divisions. In world politics, new centers of power are emerging, such as China, India, and Russia, which play a decisive role in shaping the new order. The purpose of this article is to analyze the contours of the new world order based on its structural trends, main actors, and systemic changes. The conclusion is that the world is currently in a transitional phase, that is, the old order is disintegrating while the new order has not yet taken a definite form.

Key words: new world order, international relations, multipolarity, international organizations, USA, China, BRICS.

Аннотация: В конце прошлого века сформировался однополярный мировой порядок, который постепенно превращается в многополярное равновесие сил. Современные международные отношения характеризуются государственной мощью, распадом институтов, а также технологическим и экономическим расслоением. В мировой политике формируются новые центры силы, такие как Китай, Индия и Россия, которые играют решающую роль в становлении нового порядка. Цель данной статьи заключается в анализе контуров нового мирового порядка на основе его структурных тенденций, основных участников и системных изменений. Вывод состоит в том, что мир в настоящее время находится на переходном этапе, то есть старый порядок разрушается, а новый порядок ещё не имеет чёткой формы.

Ключевые слова: новый мировой порядок, международные отношения, многополярность, международные организации, США, Китай, БРИКС.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin gegemon davlatlar o‘rtasida keskinlik yanada ortib, dunyo shartli ravishda AQSH hamda Sobiq Sovet Ittifoqi hukmronligidagi ikki qutbga ajraldi. O‘tgan asrning 90-yillarida Sovuq Urushning tugashi o‘z navbatida Rossiyaning kuchsizlanishiga olib keldi, natijada esa xalqaro munosabatlarda AQSH boshchiligidagi yangi

tizim – bir qutbli dunyo tartiboti vujudga kelishiga zamin yaratdi. Lekin so'nggi yillarda sodir bo'layotgan ko'plab siyosiy jarayonlar bugungi kunda dunyoning siyosiy tartiboti haqida yangi kuchli davlatlar va birlashmalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Naraziy jihatdan dunyo tartibotini tahlil qilishda britaniyalik tadqiqotchi olimlar K.But va N.Uiler uchta asosiy yondashuvini ajratib ko'rsatadilar: fatalistik, vositachilik va transsendent yondashuvlar.¹ Fatalistik yondashuv tarafdorlari bo'lgan neorealistlar hamda globalistlar dunyo tartiboti davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosan qarama-qarshilik asosida amalga oshadi va bu munosabatlarning prinsipial xarakteri jahon maydonidagi kuchlar nisbati bilan belgilanadi degan fikrni bildirishadi.

Vositachilik yondashuvi tarafdorlari bo'lgan neoliberallar, funksionalistlar, konstruktivistlar fikricha, shakllanayotgan dunyo tartibotida davlatlar xalqaro institutlar, rejimlar va tashkilotlarni yaratish orqali o'z suverenitetlarining bir qismini ular bilan bo'lishishni afzal ko'radilar. Ular kollektiv tarzda belgilangan qoidalarga ixtiyoriy rioya etish xalqaro munosabatlardagi noaniqlikni kamaytirishga, o'zaro ishonchsizlikning kuchayishining oldini olishga va ehtimoliy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi deb qarashadi.

Transsendent yondashuv tarafdorlari bo'lgan neomarksistlar, feministlar, anarxistlar, federalistlar mavjud jahon tartibini eskirgan tuzum sifatida ko'rib, u yangi, adolatli va insonparvar dunyo tartibiga o'tishi kerak, deb hisoblaydilar. Ularning talqinida bugungi kundagi tartibot bu raqobatning yakuni ya'ni suveren davlatlar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladigan va milliy chegaralar bilan ajratilgan butun insoniyatni global transmilliy hamjamiyatga birlashtirish g'oyasiga asoslangan tartibdir.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni tahlil qiladigan bo'lsak, fatalistik yondashuv hozirgi kundagi jarayonlarga nisbatan mos keladi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda yirik davlatlar o'rtasidagi kuchli raqobat hali davom etmoqda, bu esa kuchlar nisbatini tenglashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hozirda AQSHning iqtisodiy va harbiy salohiyati yuqoriligiga qaramasdan, turli xil birlashmalar BRICS+ va SHHT kabi tashkilotlar nufuzi oshib bormoqda.

Jahon siyosatida AQSh gegemonligi kuchsizlanishiga qaramay, u hanuzgacha harbiy va iqtisodiy sohalarda o'z ta'sirini saqlab qolmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida so'nggi yillarda keskin kuchayib ketayotgan ushbu davlatning ichki siyosiy muammolarini keltirish mumkin. Ikki yetakchi siyosiy partiyalar ko'p holatlarda bir-birining qarorlarini chetlaydi. Bunga Frensis Fukuyama "vetokratiya" deb ta'rif beradi.² Shuningdek, AQSH qo'shinlarining Afg'onistondan tartibsiz tarzda chiqib ketishi, ayrim davlatlar nuqtayi nazaridan Rossiya-Ukraina mojarolariga nisbatan qat'iy bo'lmagan pozitsiyasi tanqid qilinishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan bir vaqtda Xitoy, Hindiston, Rossiya va boshqa bir qator birlashmalar global o'yinchilar sifatida o'z mavqeini mustahkamlab borishmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda yangi dunyo tartibotini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Jahon iqtisodiyotida YaIM hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi Xitoy global iqtisodiy muvozanatni tiklashga intilmoqda. U rivojlanayotgan mamlakatlarda "Bir makon, bir yo'l" infratuzilmasi kabi loyihalarni moliyalashtirish orqali muqobil moliyaviy institutlarni

¹ Booth, Ken. The Security Dilemma: Fear, Cooperation, and Trust in World Politics / Ken Booth, Nicholas Wheeler. London: Palgrave Macmillan, 2008. 272 p.

² Francis Fukuyama. Political Order and Political Decay. Chatham House. The Royal Institute of International Affairs. September 2014.

yaratish hamda oshkora gegemon davlat mavqeyiga intilmasdan, o'ziga xos boshqaruv modelini shakllantirish orqali o'zining moliyaviy ta'sirini oshirmoqda. Xitoy asosan o'z mamlakati rivojiga e'tibor qaratib, o'zini gegemon sifatida ko'rsatishni istamaydi. Biroq Xitoyning yuksalishi faqat iqtisodiy muvaffaqiyatlar emas, balki yangi global tartibotga bo'lgan intilish hamdir. Shu sababli u G'arb uchun nafaqat harbiy va texnologik jihatdan, balki qadriyatlar asosidagi raqobat darajasida ham tizimli yondashuvni yuzaga keltirmoqda.³

Hindiston esa uzoq vaqtdan buyon muhim xalqaro o'yinchi sifatida muvozanatlovchi vazifani bajarib kelmoqda. U bir vaqtning o'zida G'arb bilan hamkorlik qiladi va shu bilan birga BRICS kabi ko'p qutbli platformalarni mustahkamlashda ham ishtirok etadi. BRICS doirasida Hindiston Global Janub mamlakatlarini o'z atrofiga oqilona tarzda birlashtirib, yangi birlashish markazini yaratishni maqsad qilgan. Sharqdan chiqqan demokratik kuch sifatida Hindiston global maydonda o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda.⁴

Ukraina bilan keskinlik yanada ortganidan keyin qisman yakkalanib qolganiga qaramay, Rossiya BRICS mamlakatlari, Eron va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni saqlab kelmoqda. Ukrainadagi urush orqali Rossiya Yevropadagi G'arb tartibotining yemirilishiga urinmoqda. U Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq kabi mintaqalarda G'arb manfaatlarining ta'sirini zaiflashtirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, Rossiya o'zining energetika resurslarini yana kuch vositasi sifatida qayta ishga solishga harakat qilmoqda. Yevropadagi mavqeini zaiflashtirgan sanksiyalarga qaramay, Rossiya yangi energetik aloqalarni izlash orqali o'z ta'sirini saqlab qolmoqda. AQSH markazida bo'lgan bir qutbli tartibotga Rossiya Xitoy, Hindiston va boshqa BRICS+ mamlakatlari kabi muqobil markazlarning mustahkamlanishiga yordam bermoqda.

Xulosa. Yangi jahon tartibi barqaror, umumiy kelishilgan yoki uyg'un holatda bo'lmaydi. Hozirda eski tartibotning buzilishi va yangi tartibotning paydo bo'layotgan jarayonini ifodalaydi. Ushbu shakllanayotgan konturlar kuchlarning qayta taqsimlanishi, institutlar o'zgarishi, texnologik raqobat va mintaqaviy muqobil markazlarning mustahkamlanishi dunyo ko'p qutbli, markazlashmagan tartibga qarab harakat qilayotganini ko'rsatadi. Mazkur holatda muvaffaqiyat strategik moslashuvchanlik, texnologik innovatsiya va mustahkam ichki institutlarni uyg'unlashtira oladigan davlatlarga tegishli bo'ladi. Dunyoning yangi siyosiy tartiboti hali shakllanayotgan bosqichda deyishimiz mumkin. Uning yakuniy shakllanishi albatta bugungi kunda davom etayotgan siyosiy jarayonlarga chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Booth, Ken. The Security Dilemma: Fear, Cooperation, and Trust in World Politics / Ken Booth, Nicholas Wheeler. London: Palgrave Macmillan, 2008. 272 p.
2. Francis Fukuyama. Political Order and Political Decay. Chatham House. The Royal Institute of International Affairs. September 2014.
3. Pant, H. V. India's Foreign Policy. Observer Research Foundation. 2020.
4. Stuenkel, O. The Post-Western World. Polity. 2016.
https://www.researchgate.net/publication/323856868_Post-Western_World
5. Slaughter (Burley), Anne-Marie. International Law and International Relations Theory: A

³ Pant, H. V. India's Foreign Policy. Observer Research Foundation. 2020

⁴ Stuenkel, O. The Post-Western World. Polity. 2016. https://www.researchgate.net/publication/323856868_Post-Western_World

Dual Agenda // The American Journal of International Law, April 1993, Vol. 87, No.2, pp. 205-239

6. Wendt, Alexander. Collective Identity Formation and the International State // The American Political Science Review, June 1994, Vol. 88, No.2, pp. 384-396